


ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATION TADQIQOTLAR JURNALI



Google
scholar



<http://zamtadqiqot.uz>

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KREATIV YONDASHUVLAR
ASOSIDA INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH**

**Buxoro davlat universiteti
Sport faoliyati va Pedagogika fakulteti
Pedagogika kafedrasи dotsenti
PhD M.A.Jumayeva,
5-3PSI-21 guruh talabasi: Muhammadjonova Mastona**

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kreativ yondashuv asosida innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligi haqida ma'lumot keltirilgan.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini yangilash, pedagog kadrlarni tayyorlashning innovatsion usullarini joriy etish, zamonaviy ta'limni sifat jihatdan yuqori bosqichga olib chiqishga qaratilgan tub islohotlar olib borilmoqda. “Yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda, ilmiy-texnologik talablarni hisobga olib isloh qilish, takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy va ma'naviy asosda shakllantirishni taqozo etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni shakllantirishda oila,maktabgacha ta'lim, umumiylar ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari,mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarish va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarish darkor” . Shu nuqtai nazardan uzlusiz ta'lim tizimida har bir shaxsning ijodiy hamda tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan motivatsion ta'sirni aniqlash, kreativlikni rivojlantirish ko'rsatkichlarini takomillashtirish va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat

qiladi. Zamonaviy ta'linda pedagogik innovatikaning o'rni va roli katta. Bunga sabab ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyoti darajasiga qarab muntazam rivojlanib, takomillashib boruvchi dinamik tizimdir. Ushbu rivojlanish va takomillashish esa ta'lim jarayonini zamon talablarini hisobga olgan holda doimo yangilab borishni talab etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ yondashuv asosida innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini tahlil qilishni quyidagi bosqichda amalga oshirish mumkin:

1. Innovatsiyalarni pedagogik faoliyatda qo'llashda o'qituvchi faoliyatini tahlil qilish.
2. Innovatsion faoliyatning faol shakllanish davrini tahlil qilish.
3. Ta'lim jarayoniga innovatsiya kiritilib bo'lgandan keyingi davrdagi faoliyatni tahlil qilish.

Ta'lim tizimida shaxsning fazilatlari faoliyat ko'rsatish jarayonida shakllanadi va faoliyatning natijasi hisoblanadi, shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarda yangilikka intilish va mustaqil ishlashga doimo zaruriyat sezish psixologiyasini singdirish lozim. Chunki innovatsiyalar insonga ulug'vorlikdan ko'ra ko'proq zavq bag'ishlaydi. Agar bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash vazifalari yuqori saviyada amalga oshirilsa, ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni amaliyatga joriy etish samarali bo'ladi hamda sezilarli natijalarga erishish imkoniyati kengayadi.

Oliy ta'lim tizimini islohlari natijasida moddiy texnik bazani mustahkamlash, sifatli pedagogik kadrlar tayyorlash tizimidagi islohotlar, ta'lim va tarbiya jarayoni tubdan yangilash, shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali natijaviylikni ta'minlash imkoniyatlari kengaytirildi. Oliy ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor yo'nalishlarda «pedagog kadrlarning kasbiy mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish» kabi vazifalar belgilandi. Shu asosda bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash, ushbu yo'nalishdagi vazifalarni tashkil

etish texnologiyasi, uslubiy ta'minoti, faoliyatga oid kompetentsiyalar tizimi va mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi tezkor o'zgarishlarga boy bo'lgan Yangi O'zbekistonni yaratish bosqichida har bir shaxsdan o'z ichki imkoniyatlaridan yuqori saviyada qo'llash, shu bilimlar zaxirasi bilan yaqinlari va hamkasblari ruhiy dunyosini boshqarishni talab qilmoqda. Aynan mana shunday talablarga mos faoliyat yuritish uchun esa inson o'zidagi tug'ma imkoniyatlarni vaziyatga moslashtira olishi,xolislik bilan faoliyat yuritishi lozim bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, ushbu jarayonning muvaffaqiyatli yakunlanishi umumiy pedagogik faoliyatni mazmun va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish, yuqori samaradorlikka ega bo'lish va keng ko'lamli axborotlardan foydalanishdan iborat.Ta'limni innovatsion rivojlanish istiqbollari quyidagilardan iborat:

- Individuallashtirish;
- Ixtisoslashtirish;
- Tabaqalashtirish;
- Integratsiyalash;
- Ko'p variativlik;
- Axborotlashtirish;
- Uzviylik – uzlucksizlik;
- Insonparvarlashtirish;
- Qo'shimcha ta'lim;
- Inklyuziv ta'lim;
- Chuqurlashtirish;
- Modernizatsiyalash;
- Unifikatsiyalash;
- Standartlarni takomillashtirish.

Ushbu vazifalar quyidagicha amalga oshiriladi:

- bo'lajak o'qituvchilarining o'zlashtirayotgan nazariy bilimlarini nafaqat pedagog orqali,balki tashqi manbalardan ola bilishi, keng miqyosda kreativ yondashuv va tafakkur yurita olishga o'rgatish lozim, bu bo'lajak o'qituvchining

innovatsion faoliyatini namoyon etishi uchun optimal shart-sharoitlari modellarini yuzaga keltiradi;

- oliv ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlarini keng ko'lamda olib borishning tashkil etilishini yo'lga qo'yish. Bu ta'lim-tarbiya jarayonida insoniy, moliyaviy, moddiy-texnik resurslarni optimal ishlatishga imkon beradi;

- o'qituvchilarning yangilikka intiluvchanligi, ularni izlab topishga, yaratishga, ta'limga qo'llash ko'nikma, malakalari shakllanadi;

- bo'lajak mutaxassislarda uzlucksiz ijodkorlik pozitsiyasini saqlab qolish ko'nikmasi shakllanadi;

- oliv ta'imda innovatsion faoliyatda ilg'or texnologiyalar, interfaol ta'limni qo'llash muhitida ish yuritadi;

- talabalarning o'quv jarayonini harakatga keltiruvchi faol, qiziquvchan, mas'uliyatni his qilish asosida motivatsiyasi oshadi.

- oliv ta'limda Davlat standartlarini to'la o'zlashtirishi kafolatlanadi. U o'z navbatida ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonini ushbu omillar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning aqliy, ruhiy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida innovatsion faoliyat nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni

nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, tashkilotchilik, loyihalash kommunikativ va mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

1. *Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida o'qituvchidan faqatgina olgan bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llashgina emas, balki ularni doimiy takomillashtirib borish ham talab etiladi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda o'qitishning metod va vositalarini tanlash tizimi ham o'zgaradi.*

2. *Hozirgi kunda «Kim yaxshi kasb egasi bo'la oladi, ideal kasb egasi o'zi*

qanday bo'lishi kerak?» degan savollarga javob topish emas, balki professional o'sish va kasbining ustasi bo'lib shakllanishning amaliy texnologik yo'llarini aniq ko'rsatib berish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. *O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni. O'RQ-637-son. 23.09.2020. – T.: 2020. – 75 b. //https://lex.uz/docs/5013007*
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. www.lex.uz.*
3. *Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.*
4. *Abduqodirov A. Ta'lifda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008. – 180 b.*
5. *Abduquddusov O. Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlashga integrativ yondashuv. – T.:Fan, 2005. – 157 b.*
6. *Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o'kitish texnologiyalari. – T., 2001. – 69 b.*
7. *Jumayeva.M.A.Bo`lajak o`qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi ped.fan.dok.(PhD) diss.-Buxoro. 2022.yil.*
8. *Jumayeva.M.A. Innovatsion ta`lim sharoitida ona tili darslarining samaradorligini oshirish (Boshlang`ich sinf misolida) ped.fan.dok.(PhD) diss.-Jizzax. 2022.yil.*

25	IMOM AL-BUXORIYNING YOSHLARNI ILM OLİSHDA O'RIN TUTGAN HADISLARI <i>X.U.Samatov</i> <i>Pardayev Ravshan</i>	164
26	ISLOM DININING TARQALISHI VA ISLOM DINI G'OYALARINING TALIM-TARBIYADAGI AHAMIYATI <i>X.U.Samatov</i> <i>Sattorov Sindor</i>	171
27	MARKAZIY VA TIJORAT BANKLARI VALYUTA SIYOSATI <i>Abduvahobov Shaxzod Xolmo'min o'g'li</i> <i>Tayyorladi: Abdulmalikov Diyorbek</i>	179
28	PROFILAKTIKA INSPEKTORINING HUQUQBUZARLIKLER PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISHDA FUQAROLAR BILAN HAMKORLIGI <i>Komilov Doniyorbek Elmurod o`g`li</i>	184
29	BOPROSY VOSPITANIYA V XADISAX AL'BUKHARI <i>Сайдназарова Гулшан Болта кизи</i> <i>Джураева Камола Хамза кизи</i>	192
30	BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH <i>M.A.Jumayeva,</i> <i>Muhammadjonova Mastona</i>	197